

**O`ZBEKISTONDA TOVAR MODDIY ZAXIRALARNI XALQARO
STANDARTLAR ASOSIDA HISOBINI YURITISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

Sharapova Shoxsanam Raxmat qizi
Toshkent Moliya Instituti
Buxgalteriya hisobi 2 kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O`zbekiston Respublikasida Tovar moddiy zaxiralarini xalqaro standartlar asosida yuritishning o`ziga xosliklari, hisobga olish lozim bo`lgan omillar muhokama etiladi.

Kalit so`zlar: BHXS, TMZ, buxgalteriya, hisobot, natija.

KIRISH

O`zbekistonda “Tovar-moddiy zaxiralar” 2-BHXSni yuritish o`ziga xos vazifa hisoblanadi. Ushbu standartning maqsadi tovar-moddiy zaxiralarni (TMZlarni) hisobga olish tartibini belgilashdan iboratdir. TMZlarni hisobga olishda asosiy masala bo`lib TMZlarning tannarxi qanday summada aktiv sifatida tan olinishi va ular bilan bog`liqbo`lgan daromadlar kelgusi davrlarda tan olinguncha hisobga olinishi kerakligi hisoblanadi. Ushbu standart tannarx va uning keyinchalik xarajat sifatida tan olinishi, shu jumladan, uning har qanday sof sotish qiymatigacha kamaytirilishi bo`yicha ko`rsatmalarni beradi. U, shuningdek, tovar-moddiy zaxiralarning tannarxini aniqlashda qo`llaniladigan tannarxni hisoblash formulalari bo`yicha ko`rsatmalarni keltiradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu standart quyidagilardan tashqari barcha tovar-moddiy zaxiralarga nisbatan qo`llaniladi:

(a) qurilish shartnomalari, shu jumladan, ular bilan bevosita bog`liq bo`lgan xizmat shartnomalari ostida kelib chiqadigan tugallanmagan ishlab chiqarish (11- sonli BHXS “*Qurilish Shartnomalari*”ga qarang);

(b) moliyaviy instrumentlar (32-sonli BHXS “*Moliyaviy Instrumentlar: Taqdim etish*” va 9-sonli MHHS “*Moliyaviy Instrumentlar*”ga qarang);

(v) qishloq xo`jaligi faoliyatiga tegishli biologik aktivlar va yig`im jarayonidagi qishloq xo`jaligi hosillari (41-sonli BHXS “*Qishloq xo`jaligi*”).

Ushbu standart quyidagilar egaligidagi tovar-moddiy zaxiralarga nisbatan qo`llanilmaydi:

(a) qishloq va o`rmon xo`jaliklari mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar, yig`imdan so`nggi qishloq xo`jaligi hosillari, foydali qazilmalar va qazilma

mahsulotlari, agar ular shu sohalarda o`rnatilgan ilg`or amaliyotlarga muvofiq sof sotish qiymati bo`yicha baholanadigan bo`lsa, bunday TMZlar sof sotish qiymati bo`yicha baholanib, ushbu qiymatdagi o`zgarishlar shu o`zgarish ro`y bergan davrdagi foyda yoki zararida tan olinadi.

(b) o`z TMZlarini sotish xarajatlari chegirilgandagi haqqoniy qiymat bo`yicha baholaydigan, tovarlarni sotuvchi broker-treyderlari. Bunday TMZlar sotish xarajatlari chegirilgandagi haqqoniy qiymat bo`yicha hisobga olinganida, sotish xarajatlari chegirilgandagi haqqoniy qiymatdagi o`zgarishlar o`zgarish ro`y bergan davrdagi foyda yoki zararda tan olinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Tovar-moddiy zaxiralar ishlab chiqarishning ma`lum bir bosqichlarida sof sotish qiymati bo`yicha hisobga olinadi. Bu, masalan, qishloq xo`jaligida don mahsulotlari yig`ib olingandan keyin yoki foydali qazilmalar qazib olingandan keyin ularning sotilishi forvard shartnomasi yoki davlat kafolati ostida kafolatlanganida yoki ular bo`yicha faol bozor mavjud bo`lganida va sotilmaslik riski sezilarsiz darajada kam bo`lganida yuz beradi. Bunday TMZlarga nisbatan mazkur standartning faqatgina baholash bo`yicha talablari qo`llanilmaydi.

Broker-treyderlar – o`z hisobidan yoki boshqa tomonlar nomidan tovarlarni sotib oluvchi yoki sotuvchi shaxslardir. 3 (b) bandeda izohlangan TMZlar, asosan, yaqin kelajakda sotish va narxlardagi o`zgarishlardan foyda olish yoki broker- treyderlarning marjasi hisobiga foyda ko`rish maqsadida sotib olinadi. Agar ushbu tovar-moddiy zaxiralar sotish xarajatlari chegirilgandagi haqqoniy qiymat bo`yicha baholanadigan bo`lsa, ularga nisbatan ushbu standartning faqat baholash bo`yicha talablari qo`llanilmaydi.

Ushbu standartda quyidagi belgilangan ma`nodagi atamalardan foydalaniladi:

Tovar-moddiy zaxiralar quyidagi aktivlardir:

- (a) odatdagi faoliyat doirasida sotish uchun mo`ljallangan ;
- (b) bunday sotuv uchun ishlab chiqarish jarayonida bo`lgan;
- (c) ishlab chiqarish jarayonida yoki xizmatlar ko`rsatilishida foydalanilishi ko`zlangan xomashyo va materiallar ko`rinishidagi aktivlar.

Sof sotish qiymati odatdagi faoliyat davomida ishlab chiqarishni oxiriga yetkazish bo`yicha xarajatlar va sotishni amalga oshirish uchun zarur bo`lgan va taxminiy baholangan xarajatlar chegirib tashlangan sotish bahosidir.

Haqqoniy qiymat baholash sanasida bozor ishtirokchilari o`rtasidagi odatdagi operatsiyada aktivni sotishda olinishi mumkin bo`lgan yoki majburiyatni o`tkazishda to`lanishi mumkin bo`lgan narxdir (13-sonli MHXS “*Haqqoniy qiymatni baholash*” ga qarang).

Tovar-moddiy zaxiralar sotib olingan va qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlarni qamrab oladi, masalan chakana savdo tashkiloti tomonidan sotib olingan va qayta sotish uchun saqlanadigan tovarlar yoki qayta sotish uchun mo'ljallangan yer va boshqa mulklar. Tovar-moddiy zaxiralar jumlasiga, shuningdek, tadbirkorlik subyekti tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot yoki tugallanmagan ishlab chiqarish hamda ishlab chiqarish jarayonida ishlatish uchun mo'ljallangan xomashyo va materiallar kiradi. Xizmat ko'rsatish tashkilotlari uchun tovar-moddiy zaxiralarga 19-bandda izohlanganidek, xizmat ko'rsatish bo'yicha xarajatlar ham, ular bilan bog'liq bo'lgan daromadlar haligacha tan olinmagan bo'lsada, kiradi (18-sonli BHXS "Odatdagi faoliyatdan olinadigan daromad"ga qarang).

Tovar-moddiy zaxiralari tannarxi yoki sof sotish qiymatidan qaysi biri kamroq bo'lsa, o'sha bo'yicha baholanishi lozim.

Tovar-moddiy zaxiralar tannarxi. Tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga TMZlarni sotib olish, qayta ishlash va ularni hozirgi paytdagi joylashi hamda holatiga keltirish uchun amalga oshirilgan boshqa jami xarajatlar kiritilishi lozim.

XULOSA VA MUNOZARA

Moliyaviy hisobotlarda quyidagilar ochib berilishi lozim:

- (a) tovar-moddiy zaxiralarni baholash uchun qabul qilingan hisob siyosatlari, jumladan, qo'llanilgan tannarxni aniqlash formulasi;
- (b) tovar-moddiy zaxiralarning jami balans qiymati va tadbirkorlik subyekti uchun o'rinli tasniflangan TMZlar turkumlarining balans qiymati;
- (d) sotish xarajatlari chegirilgandagi haqqoniy qiymatda hisobga olingan TMZlarning balans qiymati;
- (e) hisobot davri davomida xarajat sifatida tan olingan tovar-moddiy zaxiralar summasi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. 2016 yil 13 aprelda tasdiklangan.
2. Bakieva X., Rizaev N. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2008 y
3. Dusmurotov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. -T.: "Fan va texnologiya", 2013 y.
4. Karimov A., Kurbanbayev J., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi. Darslik. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2018 y
5. Sotivoldiev A.S. Buxgalterning izohli lug'ati. -T.: "Norma", 2018 y.